

KAPITAL BARQARORLIGI VA AKTIVLAR SIFATI ORQALI BANK INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

WAYS TO INCREASE BANK INVESTMENT ATTRACTIVENESS THROUGH CAPITAL STABILITY AND ASSET QUALITY

¹Yuldoshov Otabek
Jovli o‘g‘li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda regulyativ kapital barqarorligi va aktivlar sifati muhim omil sifatida tadqiq etilgan. Tadqiqotda tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida regulyativ kapital salmog‘ining barqarorligini ta‘minlash hamda bank aktivlari tarkibini yaxshilashda monetar tartibga solish vositalaridan foydalanish yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada regulyativ kapitalning passivlar tarkibidagi barqaror ulushi banklarning moliyaviy barqarorligi, kapital yetarliligi, likvidligi va to‘lovga qobiliyatligini mustahkamlashi asoslangan. Shuningdek, monetar vositalardan oqilona foydalanish tijorat banklari aktivlari sifatini yaxshilash, yuqori riskli aktivlar ulushini qisqartirish va daromad keltiruvchi aktivlar hajmini oshirish imkonini berishi ko‘rsatib berilgan.

Eng. - This article examines the role of regulatory capital stability and asset quality in increasing the investment attractiveness of commercial banks under digital transformation. The study substantiates ways to ensure the stable share of regulatory capital in total liabilities of commercial banks and to improve the structure of bank assets through monetary regulation instruments. The article proves that maintaining a stable share of regulatory capital in liabilities strengthens banks' financial stability, capital adequacy, liquidity, and solvency. It also shows that the rational use of monetary instruments improves the quality of bank assets, reduces the share of high-risk assets, and increases income-generating assets.

Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, investitsion jozibadorlik, regulyativ kapital, passivlar, aktivlar sifati, monetar vositalar, raqamli transformatsiya, kapital yetarliligi.*

❖ *commercial banks, investment attractiveness, regulatory capital, liabilities, asset quality, monetary instruments, digital transformation, capital adequacy.*

Kirish.

Raqamli transformatsiya bugungi kunda tijorat banklari faoliyatining barcha strategik va operatsion yo‘nalishlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, bank kapitalini

boshqarish, aktivlar sifatini monitoring qilish, kredit risklarini baholash, likvidlikni nazorat qilish hamda investorlar bilan axborot almashish jarayonlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi bank tizimining

samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya tijorat banklarining investitsion jozibadorligini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi globallashtirish va raqobat kuchayib borayotgan moliyaviy bozorlarda investorlar banklarning nafaqat moliyaviy natijalariga, balki ularning kapital barqarorligi, aktivlar sifati, risklarni boshqarish darajasi va raqamli boshqaruv tizimlariga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Shu sababli bank sektorida investitsion jozibadorlikni oshirish uchun kapital bazasining yetarliligi va aktivlar tarkibining sifatli muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki kapitalning yetarli darajada shakllanganligi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, sifatli aktivlar esa bankning daromadlilik darajasini va uzoq muddatli barqaror rivojlanish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Tijorat banklari passivlari tarkibida regulyativ kapitalning yetarli va barqaror ulushga ega bo'lishi bankning moliyaviy xavfsizligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Regulyativ kapital bank tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy risklarni qoplash, kutilmagan zararlarni kamaytirish hamda depozitorlar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, kapitalning barqarorligi bankning xalqaro moliya bozorlaridagi reyting ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Ayniqsa, Basel standartlari talablariga mos ravishda kapital yetarliligini ta'minlash banklarning investitsion salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank aktivlari tarkibining sifatli bo'lishi ham investitsion jozibadorlikning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi, yuqori likvidlik va past riskli aktivlar ulushining ortib borishi bankning moliyaviy natijalari barqarorligini ta'minlaydi. Aksincha, muammoli kreditlar ulushining oshishi aktivlar sifati

yomonlashuviga olib keladi va bu holat investorlar uchun salbiy signal sifatida baholanadi. Shu sababli tijorat banklarida aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish, kredit risklarini samarali boshqarish hamda muammoli aktivlarni kamaytirish bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar kapital va aktivlar monitoringini takomillashtirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Sun'iy intellekt, "Big Data", blokcheyn texnologiyalari va avtomatlashtirilgan risk monitoring tizimlari orqali banklar real vaqt rejimida kapital yetarliligi va aktivlar sifati bo'yicha aniq tahlillarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Natijada moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash, kredit portfeli sifatini nazorat qilish va investitsion qarorlarni samarali qabul qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli platformalar investorlar bilan axborot almashish shaffofligini oshirib, banklarning ochiqlik darajasini kuchaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorijiy iqtisodchilar tijorat banklarining investitsion jozibadorligini baholashda kapital yetarliligi va aktivlar sifati ko'rsatkichlarini asosiy mezonlar sifatida ko'rsatadilar. J. Sinkey tijorat banklari barqarorligini kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, daromadlilik va likvidlik mezonlari orqali baholash zarurligini ta'kidlaydi [1].

F. Mishkin monetar siyosat vositalari banklarning kreditlash faoliyati, likvidlik holati va aktivlar tarkibiga ta'sir ko'rsatishini asoslagan. Uning fikricha, asosiy stavka, majburiy zaxira normasi va ochiq bozor operatsiyalari banklar tomonidan resurslarni taqsimlash jarayonida muhim rol o'ynaydi [2].

A. Saunders va M. Cornett tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish va aktivlar sifatini nazorat qilish bankning uzoq muddatli barqarorligi uchun asosiy omil ekanligini

ko'rsatgan [3]. R. Levine esa moliyaviy vositachilik institutlari iqtisodiyotda jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish, resurslarni samarali taqsimlash va risklarni diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qilishini asoslab bergan [4].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh. Abdullayeva tijorat banklari faoliyatida kapital bazasining mustahkamligi va bank resurslaridan samarali foydalanish moliyaviy barqarorlikning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi [5]. A. Vahobov va T. Malikov moliya tizimida banklarning barqarorligi investitsion jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, regulyativ kapital barqarorligi va aktivlar sifati tijorat banklarining investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy moliyaviy mezonlar hisoblanadi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi ushbu ikki omilni raqamli transformatsiya sharoitida o'zaro bog'liq tizim sifatida tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish va grafik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Regulyativ kapitalning passivlardagi ulushi quyidagi formula asosida baholanadi:

$$K_{rk} = \frac{RK}{P} \times 100$$

Bu yerda:

K_{rk} – regulyativ kapitalning passivlardagi ulushi;

RK – regulyativ kapital;

P – tijorat banklari passivlarining umumiy hajmi.

Aktivlar sifatini baholashda quyidagi umumiy yondashuv qo'llaniladi:

$$K_{as} = \frac{DA}{JA} \times 100$$

Bu yerda:

K_{as} – daromad keltiruvchi aktivlar ulushi;

DA – daromad keltiruvchi aktivlar;

JA – jami aktivlar.

Tadqiqotda quyidagi mantiqiy bog'liqlik asos qilib olindi:

$$IJ = f(RK, AS, L, R)$$

Bu yerda:

IJ – investitsion jozibadorlik; RK – regulyativ kapital barqarorligi;

AS – aktivlar sifati; L – likvidlik; R – risk darajasi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Regulyativ kapitalning tijorat banklari passivlari umumiy hajmidagi salmog'ini barqarorlashtirish banklarning kapital yetarliligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatligini mustahkamlovchi muhim mexanizmdir.

1-jadval

Regulyativ kapital barqarorligini ta'minlash mexanizmi*

Yo'nalish	Muammo	Taklif etilayotgan yechim	Kutilayotgan natija
Kapital yetarliligi	Passivlar tez o'sishi kapital ulushini kamaytiradi	Regulyativ kapitalning passivlardagi minimal ulushini belgilash	Kapital yetarliligi barqaror saqlanadi
Moliyaviy barqarorlik	Riskli aktivlar kapitalga bosim qiladi	Riskka mos kapital zaxirasi shakllantirish	Bank zararlarni qoplash imkoniyatiga ega bo'ladi
Likvidlik	Qisqa muddatli majburiyatlar ulushi ortishi mumkin	Uzoq muddatli kapital manbalarini kengaytirish	To'lovga qobiliyatlilik mustahkamlanadi
Shaffoflik	Kapital tarkibi bo'yicha axborot yetarli emas	Raqamli hisobotlarda kapital tarkibini ochib berish	Investorlar ishonchi ortadi

*Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Agar bank passivlari hajmi tez o'sib, regulyativ kapital unga mutanosib oshmasa, bankning risklarni qoplash imkoniyati pasayadi. Shu sababli regulyativ kapitalning passivlardagi minimal barqaror ulushini ichki me'yor sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

1-jadval ma'lumotlarida aks ettirilgan tahlil natijalariga ko'ra regulyativ kapitalning passivlar tarkibidagi barqarorligi bankning moliyaviy himoya mexanizmi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich investorlar uchun bankning risklarga bardoshlilik va uzoq muddatli barqarorligini ifodalaydi. Umuman olganda ushbu jadval asosida regulyativ kapitalning tijorat banklari passivlarining umumiy hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash yo'llari asoslab berilgan. Natijada,

tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi oshadi, kapital yetarliligi talablari to'liq bajariladi va risklarni boshqarish samaradorligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, regulyativ kapitalning passivlar tarkibidagi ulushi barqaror darajada saqlanib, bankning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi mustahkamlangan.

Shuningdek, tijorat banklari aktivlarining tarkibini yaxshilash maqsadida banklar faoliyatini tartibga solishning monetar vositalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Majburiy zaxiralar normasi, asosiy stavka, ochiq bozor operatsiyalari va makroprudensial cheklovlar banklarning kredit siyosati va aktivlar tarkibiga ta'sir ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Monetar vositalarning bank aktivlari sifatiga ta'siri*

Monetar vosita	Ta'sir mexanizmi	Aktivlar sifatiga ta'siri	Investitsion natija
Majburiy zaxiralar normasi	<i>Erkin kredit resurslarini tartibga soladi</i>	<i>Haddan tashqari kredit ekspansiyasi cheklanadi</i>	<i>Riskli aktivlar kamayadi</i>
Asosiy stavka	<i>Kredit resurslari qiymatini belgilaydi</i>	<i>Kreditlashda tanlovchanlik kuchayadi</i>	<i>Daromadli aktivlar ulushi ortadi</i>
Ochiq bozor operatsiyalari	<i>Likvidlikni boshqaradi</i>	<i>Banklar likvidligi muvozanatlashadi</i>	<i>Investorlar ishonchi oshadi</i>
Makroprudensial cheklovlar	<i>Riskli kreditlashni cheklaydi</i>	<i>Kredit portfeli sifati yaxshilanadi</i>	<i>Moliyaviy barqarorlik kuchayadi</i>

*Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Monetar vositalardan oqilona foydalanish yuqori riskli va samarasiz aktivlar ulushini qisqartiradi. Shu bilan birga, daromad keltiruvchi aktivlar hajmi ortadi, bank likvidligi optimal darajada saqlanadi va kredit resurslarining samarali taqsimlanishi ta'minlanadi.


Quyidagi 1-rasmda tijorat banklarida kapital barqarorligi va aktivlar sifati investitsion jozibadorlikka qanday ta'sir qilishini bosqichma-bosqich ko'rsatadi. Rasmda avvalo raqamli transformatsiya, kapital monitoringi hamda aktivlar sifatini monitoring qilish jarayonlari bank faoliyatining samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida berilgan.

Mazkur omillar natijasida regulyativ kapital barqarorligi ta'minlanadi va daromadli aktivlar ulushi ortadi. Shu bilan birga, kapital yetarliligi oshib, riskli aktivlar hajmi kamayadi. Bu esa bankning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Natijada tijorat banking investitsion jozibadorligi oshadi, ya'ni investorlar uchun bankning ishonchliligi, moliyaviy xavfsizligi va daromadlilik darajasi yuqori ekanligi namoyon bo'ladi. Rasm bank tizimida raqamli boshqaruv va sifatli aktivlar siyosati investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi. Bundan tashqari, zamonaviy risk-menejment tizimlarining joriy etilishi bank faoliyatining shaffofligini oshirib,

investorlarning ishonchini mustahkamlaydi. Kapital barqarorligining yuqori darajada saqlanishi esa uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, aktivlar sifatini

doimiy monitoring qilish bankning raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.



1-rasm. Kapital barqarorligi va aktivlar sifatining investitsion jozibadorlikka ta'siri

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, regulyativ kapital barqarorligi va aktivlar sifati tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda bir-birini to'ldiruvchi omillardir. Kapital yetarliligi bankning risklarni qoplash imkoniyatini oshirsa, aktivlar sifati bankning daromadlilik va likvidlik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Raqamli transformatsiya ushbu jarayonlarda axborot shaffofligini ta'minlaydi. Kapital tarkibi, aktivlar sifati, muammoli kreditlar ulushi va likvidlik ko'rsatkichlari raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Bu esa investorlar uchun bank faoliyatini baholash xarajatlarini kamaytiradi.

Monetar vositalarning bank aktivlari sifatiga ta'siri ham raqamli sharoitda aniqroq baholanadi. Banklar foiz stavkalari, likvidlik o'zgarishlari va qarzdorlar to'lov qobiliyatiga

oid ma'lumotlarni tezkor tahlil qilib, kredit siyosatini moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, regulyativ kapitalning tijorat banklari passivlari umumiy hajmidagi salmog'ini barqaror saqlash banklarning moliyaviy barqarorligi, kapital yetarliligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatligini mustahkamlaydi.

Tijorat banklari aktivlari tarkibini yaxshilashda monetar vositalardan foydalanish yuqori riskli aktivlar ulushini kamaytirish, daromadli aktivlar hajmini oshirish va kredit resurslarining samarali taqsimlanishini ta'minlaydi.

Raqamli transformatsiya kapital va aktivlar monitoringini kuchaytirib, investorlar uchun bank faoliyati shaffofligini oshiradi. Shu

¹Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

sababli kapital barqarorligi va aktivlar sifati tijorat banklarining investitsion jozibadorligini

oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sinkey J. F. *Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry*. – 6th ed. – New Jersey: Prentice Hall, 2002. – 696 p.
2. Mishkin F. S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – 12th ed. – Boston: Pearson, 2019. – 720 p.
3. Saunders A., Cornett M. M. *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. – 9th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2018. – 912 p.
4. Levine R. *Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth*. – 2005. – Vol. 1A. – P. 865-934.
5. Abdullayeva Sh. Z. *Bank ishi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – 732 b.
6. Vahobov A. V., Malikov T. S. *Moliya*. – Toshkent: Noshir, 2012. – 712 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Monetary Policy Guidelines for 2026-2028*. – Toshkent: CBU, 2025. – URL: cbu.uz